

TARIXIY ASARLARDA OBRAZ YARATISHDA XARAKTER TASVIRINING AHAMIYATI

(Baxtiyor Abdug‘afurning “Madaminbek:Qonli gullar vodiysi” va Alisher Ibodinovning “Qo‘rboshi Madaminbek” asarlari tahlili misolida)
Soliyev Shoxrux Xolmuxammad o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Tarixiy asarda tarixiy shaxsning ochib berishda xarakter o‘rnini, asarning muhim o‘ringa ekanligi ko‘rsatib berilgan. Baxtiyor Abdug‘afurning “Madaminbek:Qonli gullar vodiysi” va A. Ibodinovning “Qo‘rboshi Madaminbek” tarixiy asarlarida Madaminbek, Shermuhammadbek, obrazlari, tarixiy haqiqat va xarakteri ochib berilgan.

Kalit so‘z va iboralar: Tarixiy shaxs, obraz, Baxtiyor Abdug‘afur, “Madaminbek:Qonli gullar vodiysi”, xarakter, tarixiy haqiqat, Madaminbek va Shermuhammadbek obrazi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье показано, что роль персонажа и важная роль произведения в раскрытии исторической личности в историческом произведении. «Мадаминбек: Долина кровавых цветов» Бахтиёра Абдугафура и А. Исторические труды Ибодинова «Корбоши Мадаминбек» раскрывают образы, историческую правду и характер Мадаминбека, Шермухаммадбека.

Ключевые слова и фразы: Историческая личность, образ, Бахтиёр Абдугафур, «Мадаминбек: Долина кровавых цветов», персонаж, исторический факт, образ Шермухаммадбека.

ABSTRACT

In this article, it is shown that the role of character and the important role of the work in revealing the historical person in the historical work. "Madaminbek: Valley of Bloody Flowers" by Bakhtiyor Abdugafur and A. Ibodinov's historical works "Korboshi Madaminbek" reveal the images, historical truth and character of Madaminbek, Shermuhammadbek.



Keywords and expressions: Historical person, image, Bakhtiyor Abdugafur, "Madaminbek: Valley of Bloody Flowers", character, historical fact, image of Shermuhammadbek

Har bir inson ma'navi shakllanishida tarixni o'rni beqiyosdir. Bu albatta badiiy adabiyot bilan chambarchas bog'liqdir. Tarixiy mavzudagi asarlar orqali inson tarixni anglashga intiladi. Tarix doimo xolis bahoga muhtojdir. Zero, o'tmishdan ibrat olinishi, qachondir yo'l qo'yilgan xatolar takrorlanmasligi, erishilgan muvaffaqiyatlar mustahkamlanishi uchun alohida bir shaxs ham, butun bir millat ham tarixiy haqiqatni qanday bo'lsa, shunday ko'ra bilishi kerak bo'ladi. "Yozuvchi tasavvuri muayyan g'oyaga asoslanib, hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, to'qiydi va yangidan tasirli va jonli, tabiiy va go'zal, tipik va yaxlit narsa yaratadi. Bu jarayon xarakter va epizodlarni yaratishda ham, qahramon va voqelikning ayrim xususiyatlarini ko'rsatishda ham, yaxlit sujetni yuzaga keltirishda ham sodir bo'ladi." [1]

Baxtiyor Abdug'afurning "Madaminbek:Qonli gullar vodiysi" tarixiy romanida Madaminbek qat'iyatli, o'ziga ishonchi baland, ma'rifatparvar, ilmli, jasur, dovyurak, aqli, shoirtabiat, ko'ngilchan, zehni o'tkir,adolatparvar inson sifatida tasvirlangan.

Asarda ko'plab tarixiy shaxslarni uchratishimiz mumkin. Bular Madaminbek, Saoadat aya, Shermuhammadbek, Kichik Ergash, Katta Ergash, Frunze va boshqalar.

"Madaminbek:Qonli gullar vodiysi" asarida Madaminbek quyidagicha tasvirlanadi "o'rta bo'ylik, oq yaktak ustidan marg'iloncha to'n kiygan, nigohi vazmin va sinovchan boquvchi, belbog'iga to'pponcha qistirgan, qo'nji baland etik kiygan yigit turardi.[2] Yana bir o'rinda esa "Madaminbek o'rta bo'ylik, to'ladan kelgan, qizilga moyil yuzlik, xotirjam va o'ziga ishonch bilan gapirguvchi yigirma olti yoshlardagi yigit edi. Uning qatiy, qandaydir sirli, o'tkir nigohi suhbatdoshlarini muvozanatdan chiqarishga qodir edi.[2] Demak Madaminbek qo'liga qurol olib bolsheviklarga qarshi kurashyotganda endigma yigirma olti yoshda ekanligini ko'rmoqdamiz. Romanda Shermuhammadbek quyidagicha tasvirlanadi: "U uzun bo'ylik, qotmadan kelgan, taqa mo'ylov, ko'zları yirik va kishiga jiddiy boqadigan, Madaminbek bilan tengdosh yigit edi.Qo'nji tizzasiga yetgan qora etik kiygandi." [2] Shermuhammadbek ruslarga tamoman qarshi edi, Madaminbek rus polkovnigi bilan hamkor bo'lganda undan xafa bo'ladi, ammo tezda yarashib olishadi.



Xarakter yaratishda unga umuminsoniy qadriy atlarning singishi haqida so‘z yuritilganda Alisher Ibodinovning "Qo‘rboshi Madaminbek" asari alohida badiiy qimmatga va ahamiyatga ega. Zero, Madaminbek xarakterini umuminsoniy axloq va fazilatlardan ayro holda shakllantirishning mutlaqo imkon yo‘q. Madaminbek ayni shu kabi fazilatlar jamlanmasi orqali tiklanadigan xarakter namunasidir. Ushbu asar va undagi Madaminbek obrazi haqida gap ketganda O‘zbekiston Xalq shoiri Xurshid Davronning quyidagi fikrlari yodimizga tushadi: "Olis bolalik chog‘larimda o‘qiganim bois allaqachonoq muallifining kimligi esim dan chiqib ketgan bir kitobda Madaminbekning o‘ldirilishi lavhasi nima uchundir xotiramda qattiq muhrlanib qolgan. Har gal "Madaminbek" ismini eshitishim bilan o‘sha lavha gavdalanadi. Aslida bu lavha ongimda allaqachonlar o‘zgargan tarzda yashayotganini esa Alisher Ibodinovning kitobini o‘qiganimdan keyin sezdim. Ko‘z o‘ngimda gavdalanadigan lavhada men Madaminbekni bosmachilar tomonidan qurshab olingan hovlida qizil askarlar bilan yonma-yon turib jang qilayotganini emas, oppoq otida yomg‘irli va chaqmoqli kechada qayoqgadir yelib borayotganini, chaqmoqlarning oniy shuuri yoritgan ko‘zlarida buyuk bir dard tovlanib turganini – kurashchi inson siyosini ko‘raman" [3].

"Qo‘rboshi Madaminbek" asarida nafaqat Madaminbek, balki uning yaqinlari Ahmadbek, Saodat aya obrazlariga ham e’tibor qaratiladi. Bu obrazlar Madaminbek xarakteridagi eng nozik jihatlarni ochib berishga yordam beradi. To‘g‘ri, qissada kompozitsion qurilishning ma'lum bir o‘rinlarida uzilishlar kuzatiladi, izchillik yo‘qoladi. Biroq ahamiyatli tomoni shundaki, muallif eng muhim ishni Madaminbek obrazini xarakter darajasiga olib chiqishni va bu xarakterning konsepsiyasini aniqlashni juda yaxshi eplaydi.

"Qissaning poetik qurilishi ham maqsadga - qahramonga qaratilgani bilan belgilanadi. Jumladan, qissa syujetidagi barcha voqealar qahramon atrofida uyushtiriladi." [4]. Shu sabab odatda badiiy adabiyotdagi personajlar xarakterni mukammallahuviga sabab bo‘luvchi omillar sifatida baholanadi.

Xulosa qilib aytganda asarda Madaminbek va Shermuhammadbek obrazlari xarakter orqali yorqin ochib berilgandir. Ularning xalqni ozodlikka chiqarish uchun jon bergen fidoyi, jasur,adolat uchun kurashadigan insonlar, marifatli tarixiy shaxslar sifatida ochib berilganligi, sho‘rolarga qarshi kurashgan yurt qahramonlari sifatida tasvirlangani ularning xarakteri orqali ko‘rsatiladi..

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umurov H. Artistic psychology and modern Uzbek novelist. - Tashkent: Science, 1983.-B.69
2. Baxtiyor Abdug‘afur Madaminbek:Qonli gullar vodiysi. – Toshkent:Akademnashr, 2023. – 496 b.
3. Qobulova N. Erkin A’zam nasrida davr va inson konsepsiysi. Fil.f.f.d.(PhD)... ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya. - Samarqand. 2020. 87-bet.
4. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak. – B.132.
5. Alisher Ibodinov, Qo‘rboshi Madaminbek, Yozuvchi.1993.,B.15.
6. Yo‘lchiyev Q.V. Lirik she’rda badiiy makon muammosi. So‘z san’ati xalqaro jurnali, 2020-yil, 5-son.
7. Baxtiyor G‘ofurov, Qo‘rboshi Madaminbekni kim o‘ldirgan? 2020., 3-son

